

KIMYONI O'QITISHDA CHET TILLARIDAN MOTIVATSIYA SIFATIDA FOYDALANISH

S.Yangiboyev – kimyo fanlari nomzodi, dotsent

S.Shernazarova – o'qituvchi

K.Sh.Hamroyev – kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori

Navoiy davlat pedagogika instituti

A.T.Kaipbergenov – texnika fanlari doktori (DSc)

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: motivatsiya, sinovchi trubka, o'lchov kolbasi, birikish, ajralib chiqish, almashinish.

Ключевые слова: мотивация, испытательная трубка, мерная колба, присоединение, элиминирование, замещение.

Key words: motivation, test-tube, measuring glass, addition, elimination, substitution.

O'zbekiston jahonga yuz tutmoqda. Jahon O'zbekistonni qayta kashf qildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingani O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada mustahkam bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidentimizning oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari ilm-fan taraqqiyotining yorqin yo'llarini ochib berdi. "Xalqaro aloqalar tobora rivojlanib borayotgan bir paytda chet tillaridan birini bilish insonning amaliy faoliyatida juda zarur bo'lib qolmoqda. Bularning barchasi chet elliklar bilan muloqotni kuchaytiradi, tilni bilishga ehtiyojni kuchaytiradi. Jahon tili hisoblanmish ingliz tilini bilishga bo'lgan qiziqish kattayu kichik orasida, maktab o'quvchilari, talabalar, o'qituvchilar orasida ommalashib bormoqda" [1].

Bu mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda jamiyatning informatsiyani tez qayta ishlaydigan omillarga ehtiyoji katta. Buni faqat o'z ona tilida emas, balki chet tillarida ham muloqot qila oladigan aqli va ilmiy kadrlarga bo'lgan talab asosida amalga oshirish mumkin. Maktablar va oliy ta'lim shunday talabga javob beradigan ilmiy salohiyati yetuk kadrlarni yetkaza olayaptimi? Kimyoni ingliz tili bilan fanlararo bog'lash bilan olib boriladigan o'quv ilmiy metodologiyani aniq mavzular misolida ishlab chiqish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega [2]. Kimyo darsida yoki darsdan tashqari to'garak ishlarida ingliz tilining muloqotdagi keng imkoniyatlaridan foydalanish dars samaradorligini oshishga olib keladi.

Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv va globalashuv jarayoniga intilish juda tez bormoqda. Insonlar orasida madaniyatlararo, millatlararo munosabatlar kuchayotgan bir paytda zamonaviy insonning ko'p tillik sharoitida yashashga va ishlashga ehtiyoji o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Taraqqiyot talabi ham shu. Chunki jamiyatning informatsiyalashuv jarayoni jadallashmoqda. Millatlararo munosabatlarda MDH doirasida rus tili ko'proq rol o'ynasa, jahon miqyosida, siyosatda, biznesda va fanda ingliz tili asosiy rol o'ynaydi. Hozirgi zamon yosh kadri o'z fanini va ingliz tilini, shuningdek, informatsion vositalardan umumli foydalana bilishi shart.

Hozirgi vaqtda Yevropa, Osiyo va Amerika maktablari-da fanlarni biror til bilan bog'lab olib borish tendensiyasi kuchayib bormoqda [3]. Hindistonda oxirgi paytlarda dasturlash, programmlar tuzish va IT sohasida rivojlanishi bejiz emas. Bu mamlakatda davlat tili ingliz tili hisoblanadi. Maktabning quyi sinflaridan boshlab o'quvchilar ingliz tilini biladi va barcha fanlarni ingliz tilida o'rganadi.

Jonajon O'zbekistonimizda ham Prezidentimiz tomonidan yangitdan ochilgan President maktablari va maxsus maktablar ana shu jahon tajribasini inobatga olgan holda ish boshladi. Shunday qilib, xalqaro loyiha "Content and language integrated learning" –fanlarni chet tili bilan bog'lab o'qitish - uning asosiy vazifasi o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarning hosil bo'lishida har bir fanning mavzusini bilishda, jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan, ingliz tilida shakllantirish [2, 4]. Bu umumiy ilmiy ma'lumotli ko'p tilli yosh kadrlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ham bu xalqaro loyihada faol ishtirok etishni boshladi. Ko'plab institutlarda ingliz tilida o'qitilayotgan guruhlarining paydo bo'lishi va yuqorida aytilgan maktablarning barpo etilishi va turli fanlarning shu

jumladan kimyoni o'qitishda ingliz tilidan motivatsiya sifatida foydalanish uslublarini tavsiya etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Bu holatdan maktablarning yuqori sinflarida va oliy o'quv yurti talabalari orasida turli fan o'qituvchilari, shu jumladan, kimyo o'qituvchilari ham, juda keng ommalashib borayotgan tillardan motivatsiya sifatida foydalanishlari mumkin.

Kimyoni chet tillar bilan bog'lashni VII sinfning boshlang'ich darslaridanoq qo'llasa bo'ladi. Chunki bu paytga kelib o'quvchilar ingliz tilidan ancha-muncha so'zlarni biladi va til o'rganish tayyorgarligi, shuningdek dunyoqarashi ancha shakllangan bo'ladi. Kimyodagi ko'pgina nomlanishlar xalqaro nomda qo'llanilgani va dastlabki kelib chiqishi ham ingliz tilida bolgani bois kimyoviy atamalarni ingliz tilida qo'llash o'quvchilarning kimyoni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va kimyoviy bilimlarini puxtaroq o'rganishga chorlaydi. Masalan: "Dastlabki kimyoviy tushunchalar" bobidagi, "Kimyoning predmeti. Modda va uning xossalari. Toza modda va aralashmalar" mavzusida o'tiladigan "jism" va "modda" tushunchalarini fanlararo integratsiyani qo'llab, bu tushunchalarni farqlasa bo'ladi. VII sinfda o'quvchilar: sanaladigan va sanalmaydigan otlar farqini tilda yaxshi biladi. O'quvchilar sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bir necha misollar keltiradi va ularni ikki qator qilib yozishadi. O'quvchilarning fikri xulosa qilinib, sanaladigan otlar jismni, sanalmaydiganlari moddani bildirishi ta'kidlanadi:

Sanaladigan otlar	Sanalmaydigan otlar
a chair (stul)	wood (yog'och)
a pencil (qalam)	Water (suv)
a glass (stakan)	Glass (shisha)
a book (kitob)	Paper (qog'oz)
a pen (ruchka)	Salt (tuz)
a board (doska)	Sugar (shakar)

Uy ishi sifatida "jism" va "modda"larga misollarni o'zbek va ingliz tillarida yozib kelish topshirig'i beriladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ko'pchiligi ingliz va o'zbek tillarida ko'plab misollar yozib, "jism" va "modda" tushunchasining farqini va shu bilan birga ingliz tilini ham o'rgana boshlaydi.

Keyingi darslarda o'quvchilarning e'tiborini laboratoriya jihozlari va kimyoviy idishlar nomlari bilan tanishtirishga jalb etiladi. Bunda ham ularning nomi qanday kelish chiqqanligi bilan qiziqirsa bo'ladi. Masalan, "probirka" so'zi qanday kelib chiqqan? Deyilganda, rus tilini yaxshi biladigan talabalar "probovat" so'zidan bo'lsa kerak deydi. Buni inglizcha so'ralganda "to test" deb javob berishadi. Ingliz tilida probirka "test-tube" (sinovchi trubka) deyiladi, spirit lampasi-spirit lamp deyiladi. O'quvchilarga eng ko'p ishlatiladigan laboratoriya jihozlari va kimyoviy idishlarni inglizcha nomlarini yozib kelish topshiriladi. Eng ko'p qo'yidagi so'zlar uchraydi [4].

Kolba-flask, silindr-cylinder, voronka-funnel, o'lchov kolbasi-measuring glass, filtr-filter, shtativ-stand, probka-stopper.

Laboratoriya darslarida ham o'tiladigan mavzuda ishlatiladigan moddalar nomini ingliz tilida aytilish yoki so'rash o'quvchilarda boshqacha motivatsiya hosil qiladi. Masalan osh tuzi-common salt.

Institutda ham talabalarga ba'zi mavzularni o'tayotganda avval reaksiyani yozib tushuntirib, keyin shu

reaksiyani ingliz tilida qanday aytilishini so'rasangiz, darrov qiziqish boshqacharoq bo'ladi va ular taxminan bo'lsada fikrlarini ayta boshlashadi. Masalan, birikish reaksiyasida ikkita yoki uchta moddadan bitta yangi modda hosil bo'ladi. Birikish reaksiyasi ingliz tilida addition, ajralib chiqish reaksiyasi esa-elimination, qayta guruhlash reaksiyasi esa-rearrangement deyiladi [5].

Ayniqsa, reaksiya mexanizmlarini tushuntirilayotganda II bosqich o'quvchilariga S_{N1} va S_{N2} qisqartmalari qo'llaniladi va ular monomolekulyar va bimolekulyar nukleofil' almashinish reaksiyalarini bildirishini har bir o'qituvchi aytdi, lekin S_{N1} -S-substitution N-nukleofilik 1-monomolekulyar-ya'ni monomolekulyar nukleofil' almashinish, S_{N2} - S-substitution N-nukleofilik 2-bimolekulyar nukleofil' almashinish so'zlaridan kelib chiqqanligini izohlasa, talaba bu so'zlarning ma'nosini unutmaydi va ingliz tilidan kelib chiqqanligini va fanni chuqur bilish uchun ingliz tilini bilish zarurligini anglab yetadi. Bu albatta, o'z-o'zidan kimyo fanini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

Moddalarini nomlashda xalqaro IUPAK qoidalari qo'llaniladi. IUPAK -International Union of Pure and Applied Chemistry, ya'ni International-xalqaro, Union – ittifoq, Applied-amaliy, Chemistry-kimyo Pure-toza (sof) ya'ni sof va amaliy kimyoning xalqaro ittifoqi deb tarjima

qilinsa, shunda bu so'zlarning ma'nosi va kelib chiqishi darrov tushunarli bo'ladi.

Davriy sistemani organish jarayonida agar oquvchilarning bilim saviyasi birmuncha yuqori bolsa, ma'lum tushunchalardan tashkil topgan to'liq gaplarning ham ingliz tilida qanday aytilishini so'rasi boladi. Masalan: D.I.Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi - Периодическая система химических элементов Д.И.Менделеева - Periodik Table of Elements; Katta va kichik davrlar – Периоды большие и малые - Large and small periods; Gruppalar va gruppachalar – Группы и подгруппы - Groups and subgroups; Kimyoviy elementlarning belgilari – Символы химических элементов - Symbols of chemical elements [6].

1. Fanlararo bog'lanishdan foydalanib, nafaqat kimyoni o'rgatishda motivatsion jarayonlardan foydalanamiz, balki kimyoni chuqur o'rgatish jarayonida, xorijiy tillarni o'rgatish oson bo'lishiga ham erishiladi.

2. Bizningcha, ma'lum bir fanni chuqur egallab, shu fan orqali xorijiy tillarni o'rgatish ancha- muncha osonlashadi. Ba'zi talabalar kimyoni yaxshi o'rganib, keyin shu masalalarning ruscha muqobillarini ko'rib chiqib, shunday yo'l bilan ruschani o'rganganliklariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunki kimyo tili internatsional til bo'lib, tushuncha va atamalarining ko'pchiligi yevropa tillaridan kelib chiqqan.

Adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2909 qarori.
2. Билингвальное обучение или английский язык на уроках химии. [http:// Pavlova-miss-chtivisty.ru/index/0-3](http://Pavlova-miss-chtivisty.ru/index/0-3) 2013. «Дрофа».
3. Борунова Е.Б. Методика изучения химии в школе в условиях интеграции с английским языком Москва 2010 авт.канд.дисс.
4. Минаев Ю.Л. Английский язык в таблицах 2015 г. изд. "Дрофа".
5. Rahmatullayev N.G. Omonov X.T. "Kimyo o'qitish metodikasi". -T.: «O'qituvchi», 2002. 35-44-b.
6. Усова А.В. Формирование у школьников обобщенных умений и навыков при осуществлении межпредметных связей. //Межпредметные связи естественно-математических дисциплин. -Москва: «Просвещение», 1980. -С. 42.

REZYUME

Ushbu maqolada ingliz tili xorijiy til hisoblanmish guruhlarda kimyo fanini o'qitishda ingliz tilining motivatsion vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, asosiy fan va tilni integratsiyalashtirish bu kimyo singari fanni xorijiy til orqali o'rganishda va xorijiy tilni aloxida fanlarni o'rganish jarayonida o'zlashtirishning asosi ekanligi aks etgan.

РЕЗЮМЕ

В статье обсуждается значимость английского языка как мотивационное средство в обучении химии в классах где английский язык считается иностранным языком. А также, в статье выражается мысль о том, что отдельные предметы и языка интегрирование стали как основа в изображение и в изучение другого предмета как химия с помощью иностранного языка изучать иностранный язык в процессе изучения отдельного предмета.

SUMMARY

The article analyzes the importance of the English language as a motivational tool in teaching chemistry in EFL classes. In addition, it shows that content and language integrated learning has become the umbrella term describing both learning another subject such as chemistry through the medium of a foreign language and learning a foreign language by studying a content-based subject.

TEACHING READING IN A FOREIGN LANGUAGE IN ESP

G.O.Yaxshiboyev – a teacher

Andijan state medical institute

Tayanch so'zlar: davlat ta'lim standarti, bahona, ko'rib chiqishni o'qish, kirish o'qish.

Ключевые слова: государственный образовательный стандарт, предлог, обзорное чтение, вводное чтение.

Key words: State Educational Standard, pretext, review reading, introductory reading.

Reading begins only from the moment when a person, looking at the letters, is able to pronounce, or remember, a certain word corresponding to the combination of these letters [3].

The development of reading skills is a leading component in the formation of communicative competence, which, in accordance with the provisions of the State Educational Standard, is one of the main goals of teaching foreign languages.

In the method of teaching foreign languages, there are several definitions of the concept of reading. In the dictionary of methodological terms E.G.Azimov and A.N.Shchukin define reading as one of the receptive types of speech activities aimed at the perception and understanding of the written text [1].

Here we are going to learn stages of work on the text and work on the text is based on the following stages:

1. Pretext - awakening and stimulating motivation to work with the text; updating the personal experience of students by attracting knowledge from other educational

areas of school subjects; predicting the content of the text based on the knowledge of students, their life experience, on the title and pictures, etc. (formation of predictive skills). One important rule must be observed here: all preliminary work on the text should not relate to its content, otherwise schoolchildren will not be interested in reading it, since they will no longer find anything new for themselves in this text.

At the first stages of working with the text, the teacher should make it easier for students to understand the content and show them a number of important strategic points in working on an authentic text: determine before reading by the title and (or) by the structure of the text, by the pictures accompanying the text, to what type (type) this text refers (for example, a recipe or a newspaper ad); what or who can it be about. In order for students to be able to see, first of all, familiar phenomena in the text, they can be offered tasks in searching and underlining known words in an unfamiliar text, as well as words whose meaning can be guessed, and asked to predict the content (in their native or